Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 651.43
ORCID: 0009-0005-5530-6431

DUSYAROV SALIMJON XUDAYMURATOVICH
Termiz davlat universiteti
Sport boshqaruvi kafedrasi o'qituvchisi
E-mail:salimjonjavohir@gmail.com

11-12 YOSHLI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA HARAKATLI O'YINLARNI TANLASH, TAHLIL QILISH VA QO'LLASH METODIKASI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada 11-12 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishda harakatli o'yinlarni tanlash, tahlil qilish va qo'llash metodikasini pedagogik jihatdan takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotning dolzarbligi umumta'lim maktablarida o'quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlash zarurati bilan belgilanadi.

Ishda 11-12 yoshli o'quvchilarning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlari asosida harakatli o'yinlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Harakatli o'yinlarni tanlash mezonlari, ularni tashkil etish shakllari hamda jismoniy tarbiya darslarida qo'llash usullari ilmiy-metodik asosda yoritilgan. Shuningdek, harakatli o'yinlar orqali o'quvchilarning jamoaviylik, faollik, mustaqillik, chaqqonlik, tezkorlik va harakat ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Tadqiqot natijasida o'quvchilarning jismoniy madaniyatini samarali shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda ularning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali asoslangan. Tadqiqot natijalaridan umumta'lim maktablari jismoniy tarbiya darslari hamda sinfdan tashqari sport-sog'lomlashtirish mashg'ulotlarini tashkil etishda foydalanish mumkin.

KALIT SO'ZLAR: *Harakatli o'yinlar, maktab o'quvchilari, jismoniy madaniyat, ta'lim, tarbiya, shakllantirish, tanlash, tahlil qilish, shakllar, metod, metodika, vosita, sog'lomlashtirish.*

МЕТОДОЛОГИЯ ОТБОРА, АНАЛИЗА И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИГРОВЫХ ФОРМИРОВОК В ФОРМИРОВАНИИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ШКОЛЬНИКОВ 11-12 ЛЕТ

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются вопросы педагогического совершенствования методики отбора, анализа и применения активных игр в формировании физической культуры школьников 11-12 лет. Актуальность исследования определяется необходимостью повышения физической активности учащихся средних школ, формирования здорового образа жизни и обеспечения эффективности процесса физического воспитания.

В работе анализируется педагогический потенциал активных игр с учетом возрастных, психологических и физиологических особенностей учащихся 11-12 лет. Научные и методические основы рассмотрены в контексте критериев отбора активных игр, форм их организации и методов использования на уроках физкультуры. Также раскрыты возможности развития у учащихся навыков командной работы, активности, самостоятельности, ловкости, скорости и двигательных навыков посредством активных игр.

В результате исследования были разработаны педагогические и методические рекомендации по эффективному формированию физической культуры учащихся, эффективность которых была подтверждена экспериментальной работой. Результаты исследования могут быть использованы при организации уроков физкультуры в средних школах и внеклассных спортивно-оздоровительных мероприятий.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Активные игры, школьники, физическая культура, образование, воспитание, формирование, отбор, анализ, формы, метод, методология, средства, укрепление здоровья*.

METHODOLOGY FOR SELECTING, ANALYZING AND USING ACTIVITY GAMES IN FORMING THE PHYSICAL CULTURE OF 11-12 YEAR-OLD SCHOOL STUDENTS

ABSTRACT: This article examines the issues of pedagogical improvement of the methodology for selecting, analyzing and applying active games in the formation of physical culture of 11-12-year-old schoolchildren. The relevance of the study is determined by the need to increase the physical activity of students in secondary schools, form a healthy lifestyle, and ensure the effectiveness of the physical education process.

The work analyzes the pedagogical potential of active games based on the age, psychological and physiological characteristics of 11-12-year-old students. The criteria for selecting active games, forms of their organization and methods of using them in physical education lessons are covered on a scientific and methodological basis. The possibilities of developing students' teamwork, activity, independence, agility, speed and movement skills through active games are also revealed.

As a result of the research, pedagogical and methodological recommendations were developed to effectively form the physical culture of students, and their effectiveness was substantiated through experimental work. The results of the research can be used in organizing physical education classes in secondary schools and extracurricular sports and health activities.

KEYWORDS: *Active games, schoolchildren, physical culture, education, upbringing, formation, selection, analysis, forms, method, methodology, means, health promotion.*

KIRISH. Bugungi kunda yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash mamlakat taraqqiyoti va mudofaa strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu vazifaning samarali bajarilishi jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy mahorati, ma'naviy-axloqiy fazilatlari hamda ta'lim jarayonidagi faolligiga bevosita bog'liqdir. Shuningdek, har qanday davlat rivoji yoshlarning jismoniy tayyorgarligi, mehnat unumdorligi va intellektual salohiyati bilan belgilanadi.

O'sib kelayotgan avlod salomatligini mustahkamlash va ularni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonning samaradorligi jismoniy tarbiya tizimi mutaxassislarining kasbiy mahorati va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan faoliyatiga bog'liq. Shu bois jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish mamlakatning barqaror rivoji va sog'lom kelajagini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Bu borada bir qancha farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 29-aprelda "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni imzolandi. Ushbu konsepsiyasida:

-o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

- yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish;

-o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni ta'minlash, bolaning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishi:

-umumta'lim maktab o'quvchilari uchun sog'lom ovqatlanish tamoyillarini ommalashtirish;

-umumta'lim muassasalarida sport to'garaklarini tashkil qilish kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan[1].

Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi: 11-12 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishda harakatli o'yinlarni tanlash, tahlil qilish va qo'llash metodikasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy tadqiqot ishining vazifalari: Mavjud adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, yosh va jinsga xos o'yin turlarini tanlash, tahlil qilish, maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirish metodlarini sinovdan o'tkazish, dars jarayoni va sinfdan tashqari mashg'ulotlar asosida maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyati va ijodkorligini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashtirish.

Ilmiy tadqiqot ishining obyekti - 11-12 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayoni.

Ilmiy tadqiqot ishining predmeti - 11-12 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishda harakatli o'yinlardan foydalanish mazmuni, metodikasi va modeli.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Milliy xalq o'yinlari va harakatli o'yinlarining tub mohiyati shundaki, ular xalqimizning ma'naviy ruhiyati hamda aqliy salohiyatini o'zida mujassam etgan, vaqt sinovlaridan o'tgan qadriyat sifatida pedagogik jarayon unumdorligini tubdan oshirishga xizmat qiladi. Bunday o'yinlar bolalarni hali maktabgacha bo'lgan davrdanoq tizimli ta'limga sifat jihatidan butunlay yangi darajada tayyorlash imkonini beradi[2].

Mavjud o'quv-uslubiy manbalar, dissertatsiyalar va monografik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'tmishning ulug' mutafakkirlari ham tarbiya tizimida yosh xususiyatlarini inobatga olish masalasiga alohida e'tibor qaratganlar.

O'zbekistonlik olimlardan T.S.Usmonxo'jayev, A.Po'latov, Sh.A.Po'latov, D.X.Abdullayev, P.Xo'jayev, K.Raximqulov hamda B.Nigmonovlarning "Xalq harakatli o'yinlari nazariyasi va amaliyoti", "Harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi" kabi ishlarida milliy o'yinlarning paydo bo'lish muammolari va taraqqiyot bosqichlari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, mazkur adabiyotlarda harakatli o'yinlarning tasnifiy tavsiflari, ularni turli ta'lim muassasalarida tashkil etish usullari, pedagogga qo'yiladigan talablar, harakatli o'yinlarni yosh xususiyatlariga mos holda tanlash, tahlil qilish va o'tkazish metodikasi, ixtisoslashtirilgan sport turlariga moslashtirilgan shakllari hamda ularni o'rgatish metodologiyasiga oid muhim ma'lumotlar mualliflarning darsliklari, o'quv qo'llanmalari, monografiyalari va ilmiy tadqiqot ishlarida batafsil yoritilib, tizimlashtirilgan[3].

Bugungi kunda Termiz davlat universiteti "Sport faoliyati" fakulteti olimlaridan p.f.n., dotsent R.X.To'laganov, p.f.n., dotsent Y.Ch.Daniyeva, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) X.Berdiyeva hamda vohalik tadqiqotchilar Ya.Abdullayev, Sh.Xudoyberdiyevlar ushbu yo'nalishda samarali ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ularning ilmiy ishlarida harakatli va xalq o'yinlaridan unumli foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, ularning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari hamda ta'limiy imkoniyatlari masalalari keng tahlil etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. 11-12 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishda harakatli va milliy o'yinlar muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu yosh davrida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi, harakat faolligi, psixologik holati hamda ijtimoiy munosabatlari faol shakllanish bosqichida bo'ladi. Shu sababli harakatli o'yinlardan maqsadli va metodik asosda foydalanish o'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishda samarali natija beradi. Harakatli o'yinlar orqali o'quvchilarda tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik,

kuch va harakat koordinatsiyasi kabi jismoniy sifatlar rivojlanadi. Shuningdek, o'yinlar bolalarda sog'lom turmush tarziga qiziqish uyg'otib, jamoada ishlash, o'zaro hurmat, intizom, mas'uliyat va hamkorlik kabi ijtimoiy-axloqiy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Harakatli o'yinlarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash bilan birga, ularda ruhiy barqarorlik, faol hayotiy o'rin va sog'lom ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan harakatli o'yinlardan foydalanish 11-12 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishning samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim yosh davrlari muayyan jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun eng qulay bosqich hisoblanadi. Masalan, 7-12 yoshda koordinatsiya, tezkorlik va aniqlikni rivojlantirish uchun eng yaxshi sharoit mavjud. 11-14 yosh davrida esa kuch, chidamlilik va iroda sifatlari samarali shakllanadi. Shu davrda mos o'yinlardan foydalanish bolalarning tabiiy rivojlanishini yanada qo'llab-quvvatlaydi.

O'yinlar qoidalarga asoslangan faoliyat bo'lib, ularning murakkabligi bolalarning yoshiga, psixologik tayyorgarligiga va jismoniy imkoniyatlariga mos bo'lishi zarur. "Quvlashmachoq" - tezkorlik, chaqqonlik va chidamlilikni rivojlantiradi. "Oq terakmi, ko'k terak" jamoaviylik, tezkor qaror qabul qilish va koordinatsiyani shakllantiradi. "Arqon tortish" - kuch, hamkorlik va jamoaviy ruhni mustahkamlaydi. "To'pni uzat" o'yini - chaqqonlik, aniqlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Bayroqcha olish" - tezlik, strategik fikrlash va raqobatbardoshlikni oshiradi. "Estafetali yugurish" - chidamlilik, tezkorlik va jamoaviy ishlashni rivojlantiradi. [4].

Demak, harakatli o'yinlarni tanlash hamda tashkil etishda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, o'yinlarni ilmiy-metodik asosda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. To'g'ri tashkil etilgan o'yinlar bolalarning jismoniy kamolotini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning ruhiy holati, ijtimoiy faolligi va muloqot ko'nikmalarining shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishi bosqichma-bosqich kechadi. Shuning uchun o'yinlarni tashkil etishda yosh davrlariga xos xususiyatlarni hisobga olish muhim pedagogik shart hisoblanadi.

11-12 yoshli maktab o'quvchilari jismoniy va psixologik rivojlanishning faol bosqichida bo'lib, ushbu davrda kuch, tezkorlik, chaqqonlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlar jadal rivojlanadi. Shu bilan birga, ularda mustaqil fikrlash, vaziyatni tez tahlil qilish hamda jamoaviy faoliyatda ishtirok etish ko'nikmalari shakllanib boradi. Mazkur yoshdagi o'quvchilarda musobaqalashish, g'alabaga intilish va tengdoshlari bilan hamkorlikda harakat qilishga bo'lgan qiziqish yuqori bo'ladi.

Shu sababli 11-12 yoshli o'quvchilar uchun tanlanadigan harakatli va milliy o'yinlar ularning yosh, jismoniy va psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. Bunday o'yinlar o'quvchilarning harakat faolligini oshirish, jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash hamda jamoaviylik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Ushbu yosh davrida qoidalari nisbatan murakkabroq, tezkor qaror qabul qilish va taktik yondashuvni talab etadigan jamoaviy harakatli o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

11-12 yoshli o'quvchilar uchun harakatli o'yinlarni 10-15 daqiqa davomida tashkil etish tavsiya etiladi. O'yin jarayonida o'quvchilarning faolligi, intizomi, o'zaro hamkorligi va xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi alohida nazorat qilinishi zarur. Metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan harakatli o'yinlar o'quvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda samarali pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'yinlarni samarali qo'llashda ularni ilmiy asoslangan mezonlarga tayangan holda tanlash muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagi pedagogik, psixologik va metodik omillarni inobatga olish zarur bo'lib hisoblanadi:

-maqsadga moslik - har qanday o'yin ta'limiy jihatdan harakat ko'nikmalarini shakllantirishi, tarbiyaviy tomondan intizom va jamoaviylikni rivojlantirishi, sog'lomlashtiruvchi jihatdan esa jismoniy sifatlarni mustahkamlashi lozim;

-yosh va tayyorgarlik darajasini hisobga olish - o'yin qoidalari, yuklama hajmi va davomiyligi o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlariga mos bo'lishi hamda xavfsizlik talablari ta'minlanishi zarur;

-mazmun va vositalar ya'ni o'yin uchun tanlangan joy (maydon o'lchami), jihozlar (to'p, arqon, belgilash vositalari) va ishtirokchilar soni uning samarali va xavfsiz o'tishida muhim omil hisoblanadi;

-tarbiyaviy komponent - har bir o'yinda hamkorlik va raqobat uyg'unligiga erishish, bolalarni halollik, mas'uliyat va o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash zarur;

-harakatli o'yinlarda inklyuzivlikni ta'minlash - turli jismoniy imkoniyatdagi bolalarni birgalikdagi faoliyatga jalb etish orqali o'zaro yordam va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantiradi;

-milliy qadriyatlarni aks ettirish - milliy va xalq o'yinlari orqali yosh avlodga urf-odatlar, madaniy meros va an'analarni singdirishga xizmat qiladi;

Shunday qilib, milliy va harakatli o'yinlarni tanlashda maqsad, vazifa, yosh va jins xususiyati, mazmun-mohiyat, texnik jixatlar, tarbiyaviy, axloqiy hamda madaniy omillarni uyg'unlashtirish ularning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

O'yinlarni samarali qo'llash uchun ularni nafaqat tanlash, balki puxta tahlil qilish ham muhim hisoblanadi.

Tahlil jarayoni o'yin metodikasini takomillashtirish va uni pedagogik maqsadlarga yo'naltirishga xizmat qiladi. Quyidagi bosqichlar buni ta'minlaydi:

1.Pedagogik maqsadni aniqlash

2.Yosh va psixofiziologik xususiyatlarni baholashda bolalarning diqqat, motorika, emotsional holat va ijtimoiy ehtiyojlari inobatga olinadi.

3. O'yin mazmuni va qoidalarini tahlil qilish

4.Vosita va sharoitlarni aniqlash

5.Tarbiyaviy va ijtimoiy natijalarni taxmin qilish

6.Amalga oshirish va kuzatuv

7.Natijalarni umumlashtirish va takomillashtirish.

Demak, o'yinlarni tahlil qilish - bu faqatgina ularni kuzatish emas, balki pedagogik maqsad, yosh xususiyati, mazmun, vosita va tarbiyaviy jihatlarni tizimli baholash jarayonidir[5].

Maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishda o'tkazish metodikasi, to'g'ri tashkil etish eng muhim shartlardan biridir. Yosh va jins xususiyatini hisobga olish o'qituvchilardan ma'lum ziyraklik, aql-idrok, bilim, ko'nikma va malakalarni hamda pedagogik mahoratni talab qiladi. O'yinlarni o'tkazish metodlari quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1.Tayyorgarlik bosqichi - o'yin maqsadi (ta'limiy, tarbiyaviy, sog'lomlashtiruvchi) belgilanadi, maydon va jihozlar tayyorlanadi, joylashuv aniqlanadi hamda qisqa mashqlar va rag'batlantiruvchi murojaatlar orqali o'quvchilarda qiziqish uyg'otiladi.

2.Qoidalarni tushuntirish - o'yinning muvaffaqiyati qoidalarni to'g'ri tushunishga bog'liq bo'lib, ular yoshga mos, sodda va aniq bayon qilinadi.

3.O'yinni boshlash va boshqarish - o'yin pedagog tomonidan tartibli yo'lga qo'yilib, jarayonda ishtirokchilarning faolligi, intizomi va xavfsizligi nazorat qilinadi.

4.Motivatsiya va rag'batlantirish - o'yin jarayonida qiziqish va faollikni saqlash uchun rag'bat so'zlari, kichik mukofotlar va jamoaviy qo'llab-quvvatlash usullari qo'llanadi.

5.O'yinni yakunlash - belgilangan vaqt yoki maqsadga erishilgach o'yin tugatilib, natijalar umumlashtiriladi va g'oliblar e'lon qilinadi.

6.Tahlil va mulohaza - o'yin yakunida uning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinadi, o'quvchilarga fikr bildirish imkoniyati berilib, tanqidiy tafakkur rivojlantiriladi hamda keyingi mashg'ulotlar uchun xulosalar chiqariladi.

XULOSA. 11-12 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishda harakatli o'yinlardan foydalanish muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yosh xususiyatlariga mos holda tanlangan va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan o'yinlar o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, sog'lom turmush tarziga qiziqishini oshirish hamda jamoaviylik, intizom va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda samarali natija beradi.

Shuningdek, o'yinlarni tanlash, tahlil qilish va qo'llash jarayonini ilmiy-pedagogik asosda tashkil etish jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishi aniqlandi. Shu jihatdan harakatli o'yinlardan foydalanish 11-12 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyatini rivojlantirishning samarali metodik vositalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 29-aprelda "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni.

2.S.Dusyarov. 11-13 YOSHLI O'QUVCHILARDA JISMONIY MADANIYATNI HARAKATLI O'YINLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH MODELI. ILM SARCHASHMALARI. ISSN 2010-6246. 6-son (iyun 2025). WWWILMSARCHASHMALARI. UZ. 157-159-betlar.

3.11-13 YOSHLI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA HARAKATLI O'YINLARNING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI. Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2023 yil. 6-son.

4.T.S.Usmanxodjayev., Sh.X.Isroilov., A.A.Pulatov., Sh.A.Pulatov. Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA». 2015. 265 s.

5.K.Rahimqulov. Milliy harakatli o'yinlar. O'quv qo'llanma. «TAFAKKUR-BO'STONI». Toshkent-2012. 142 s.

6.T.Usmanxodjayev., S.Usmanxodjayev., N.A.Chorshamiyev., Sh.E.Keldiyorov., B.X.Xoliqov. SPORT turlariga oid xarakatli o'yinlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. «O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI» 2020. 176 s.

7.Ya.Ch.Daniyeva. Dissertatsiya. I-II bosqich talaba qizlar jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanish samaradorligi. Toshkent. 2009.